



## "BADIY ASARLAR-MUSTAHKAM TARBIYANING MUHIM VOSITASI"

Bekmatova Muattarxon Solijonovnaning

*Angren shahar*

*7- umumiyo'rta ta'lism*

*maktabning Sinf rahbarlar metod*

*birlashmasi rahbari*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbuslari bilan mamlakatimizda barkamol avlodni shakllanadirish, yoshlarni ma'naviy yetuk, axloqan go'zal, jismonan sog'lom etib tarbiyalashga qaratilgan chora-tadbirlar izchil amalga oshirilmoqda. Bunga misol sifatida maktabgacha ta'lism sohasidagi tub burilishlar, xalq ta'limi tizimida 11 yillik umumiyo'rta ta'limga qayta joriy etilishi, o'qituvchilarga yaratilayotgan shart-sharoitlar va moddiy-ma'naviy rag'batlar, o'quvchilar uchun zamonaviy, yagona maktab formasining joriy etilishi, xalqaro baholashning PEARLS, TIMSS, PISA tadqiqotlariga a'zo bo'lishi; oily ta'lim tizimida xorijiy ta'lim standartlariga javob bera oladigan kadrlarni tayyorlash borasidagi bitimlarni ko'rsatish mumkin.



*Badiy asarlar- mustahkam tarbiyaning muhim vositasi*

Biz o'qituvchi-pedagoglarning ham bunga javoban o'quvchi-yoshlarni tarbiyalashda va ta'lim sifatini oshirishda o'z ustimizda qat'iy izlanishimiz zamon talabi bo'lib qolmoqda.

Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad o'quvchilarning DTS talablari darajasida bilim, ko'nikma, malakaga ega bo'lislarni ta'minlash hamda o'quvchilarni kitobxonlikka targ'ib qilgan holda badiiy asarlarni o'qib asardan tarbiyaviy xulosa chiqarishga o'rgatishdan iborat. Shu jumladan, sindf rahbarligi bo'lgan o'qituvchilar ya'ni, sindf rahbarlar ham o'quvchilari bilan olib boradigan tarbiyaviy va axloqiy ishlarini badiiy asarlar tahlili orqali olib borsalar ijobjiy natijalarga erishadilar. Sinf rahbar bu-o'quvchi



uchun maktabdagi qalbiga eng yaqin bo'lgan insoni,sirdoshi,maslakdoshi bo'lmos'i kerak.O'quvchini ijobjiy fazilatlar egasi qilib tarbiyalashda onadek yoki otasidek bo 'lib qolgan sinf rahbari bilan birga kitob mutolaa qilish har qaysi o'quvchiga o 'zgacha zavq bag'ishlaydi. Ya'ni sinf yig 'ilishlarida yoki darsdan tashqari bo 'lgan vaqtarda biroz vaqt ajratilib o 'quvchilarni yoshiga mos bo 'lgan kichik hikoyalar yoki qissalardan o'qib ,asardan tarbiyaviy xulosa chiqarish mumkin.Masalan,yuqori sinflar uchun rus adibi Anton Chexovning "Garov" hikoyasini birga mutolaa qilsa ham maqsadga muvofiq bo'lardi.O 'quvchilar bilan hikoya o'qishni boshlar ekanimiz,muallifning o'ylarining tubiga g'arq bo'lamiz,adibning ichki hissiyotlari va ko'nglidagi kechinmalariga guvoh bo'lamiz.Boshqa bir insonning o'ylariga sho'ng'ish,u bilan yana bir hayotni yashash bu - insonga berilgan go'zal bir qobilyatdir.Shu qobilyatni biz o 'quvchi yoshlarga o'rgatamiz va kerak bo'lsa tushuntiramiz.

Chexovning "Garov" hikoyasini o 'qib tugatib ,o 'quvchilar bilan birgalikda asar voqeliklarini tahlil qilgan holda,asar qahramonlarini ichki dunyolarini hamda kechinmalarini o 'rganamiz.


"Garov" hikoyasi bankir va yosh huquqshunosning qatl hukmi bilan qamoq jasosi borasidagi ziddiyati asosiga qurilgan.Hikoyada hayotning mazmuni ,yoshlik faslining qadri ,mol-dunyoning nimaga zarurligiga urg'u beriladi.Bankir va huquqshunos o 'rtasida o'n besh yillik garov bog 'lanadi.Bu hikoyada bankir obrazi boylik va hashamatga o'ch o'ylamasdan pulini ko'kka sovuradigan ochko'z inson sifatida tasvirlanadi.Asarning yana bir qahramoni yosh huquqshunos asar boshida qat'iyatli,tahdid qilingan taqdirda ham o'z nuqtayi nazaridan voz kechmaydigan, qaysar inson sifatida aks etgan.O 'n besh yillik asirlikda huquqshunos o'z fikrlash tarzini o'zgartiradi, xudbin jamiyatni tanqid qila boshlaydi,hayot mazmunini o'zicha o'z qarichi bilan o'lchab ko'ra boshlaydi.Yigit dunyoning noz-u ne'matlarini o 'tkinchi sanab,mol-u dunyo insonni baxtli qilmasligini anglab yetadi va garov uchun tikilgan pul mukofotidan ham voz kechib qochishni afzal ko 'radi.Huquqshunosning dunyoqarashini o'zgarishiga sababchi bo'lgan narsa u mahbuslgida o'qigan kitoblar bo'ladi.O'z o'ylarini qog'ozda bayon etib ,bankirga tashlab ketadi.Bu maktub bankirga ham ta'sir ko'rsatadi va xatolarini tushunib yetishiga sabab bo 'ladi.Huquqshunos kitoblardan saboq oladi,bankir esa o'z xatolaridan.

Asarni o 'quvchilar bilan birgalikda o'qib bo'lingandan keyin zamонавиј metodlar orqali asar qahramonlari xarakterini ochib berish mumkin.

"Tarmoqlash" yoki "Uch sandiq " metodlari orqali ham bu asar qahramonlarini ijobjiy va salbiy taraflarini ochib berish mumkin.



## Tarmoqlash



Ushbu usul orqali asar qahramonlariga chizgilar chiziladi...Bu chizgilar orqali esa o'quvchilarni salbiy xislatlar qanday oqibatlarga olib kelishi mumkinligini ko'rsatib beriladi.

**"Uch sandiq" texnologiyasi** olingan bilimlarni tekshirish va mustahkamlash darslarida qo'l keladi. Bunda o'quvchi 1- temir sandiqdan savollarni, 2- kumush sandiqdan matnni oladi hamda yozgan javoblarini 3- tilla sandiqqa tashlaydi. Bu usul orqali ham sinfdagi o'quvchilarning asarni qanchalar tushunganliklarini va qanday xulosa olganlarini bilib olamiz.

**Temir sandiq**  
**Savol**



**kumush sandiq**  
**matn**



**oltin sandiq**  
**javob**



Chexovning "Garov" hikoyasini o'qib tugatilgandan so'ng hikoyaning qay darajada o'quvchilar hayotiga to'g'ri tatbiq etish mumkinligi hamda umrni hech qachon o'yin bilmay ,balki uni qadrlash kerakligini uqtirish darkor. Asarni o'qigan kitobxon tiriklik mohiyatini ,bashariyatning yashashdan asl maqsadi nima bo'lishi lozimligi haqida fikr yuritishga undaydi.Zero,adabiyotning ta'sir kuchi ham mana



shunda,ya'ni kishini o'ylashga chorlashi hamda insonni to'g'ri yo'lga boshlashidadir. Xulosa qilib aytganda,sinf rahbarlar o 'quvchilarini tarbiyalashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda, badiiy asarlardan birgalikda mutolaa qilib,asar syujetini va qahramonlarini turli innovatsion metodar hamda ta'limiy o'yinlardan foydalanish orqali samarali natijalarni qo'lga kiritishlariga yordam beradi.